

Shermuxamedov B.U. – TMI,
o‘qituvchisi

O‘ZBEKISTONDA BIZNES YURITISH IMKONIYATLARI: XALQARO E’TIROF

*Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
uchun hamma yo’llar ochilgan, undan
samarali foydalanish zarur
Shavkat Mirziyoyev*

Maqolada O`zbekistonda biznes yuritish uchun yaratilgan qulayliklar va bu sohani davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash mexazimlari shuningdek, Jahon Banki uslubiyoti bilan bog`liq jarayonlar tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tijorat banklari, yalpi ichki mahsulot, imtiyozli kreditlash, Xalqaro savdo, eksport .

В статье сделан анализ процессов, связанные с созданнем благоприятных условий для ведения бизнеса и механизмы поддержки данного сектора государством в Узбекистане, а также методологией Мирового Банка.

Ключевые слова: Малый бизнес, частное предпринимательство, коммерческие банки, валовой внутренний продукт (ВВП), льготные кредитование, международная торговля, экспорт.

The article examined established conditions for doing business and government supporting mechanisms of this sphere, as well as, methodology of World Bank.

Keywords: small business, private entrepreneurship, commercial banks, gross domestic product (GDP), preferential loans, international trade, export.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta’minalash, xususiy mulkni himoya qilish va uning daxlsizligi kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish yo’lidagi byurokratik to’siqlarni bartaraf etish, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o’sishini ta’minlovchi asosiy bo’g’in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo’nalishi hisoblanadi. Iqtisodiyotda ro’y berayotgan turli ijobjiy o’zgarishlar ko’p jihatdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uzviy bog’liqidir. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo’nalishlaridan biri qilib belgilangan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o’rni va ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Ularning jamiatni rivojlantirishdagi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalashdagi rolini hech qanday soha egallay olmaydi. Chunki, kichik biznes sub’ektlari ichki bozorni sifatli tovarlar bilan ta’minlovchi, mamlakat eksport salohiyatini oshiruvchi, mamlakatda ko’p miqdordagi yangi ish

o'rirlari yaratuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisoblanadi. 2016 yil davomida respublikamizda 32 mingga yaqin yoki 2015 yilga qaraganda 18 foizga ko'p bo'lgan yangi kichik biznes sub'ektlari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan., 2017 yil aholining 78 foizi mazkur sohada mehnat qilmoqda va respublikamiz iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek: "...jiddiy va kundalik e'tiborini talab qiladigan yana bir muhim yo'nalish bor. Bu-xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va ularning ta'sirchan himoyasini ta'minlashdir" Jamiyatimizning iqtisodiy negizi bozor iqtisodiyotiga asoslangan. Bozor iqtisodiyotining tayanchi sifatida esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi muhim o'rinni egallaydi. Ushbu sohani jadal rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonunchilik bazasini takomillashtirib borish ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rirlarini yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili hisoblanadi. [1] Mamlakatimizda ham barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining o'rni beqiyosdir. Xususan, ularning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i muntazam o'sib, 2016 yil yakunlari bo'yicha 56,9 foizga yetdi, 2017 yilda esa 53,3 foizga tushdi, sanoatda esa 45 foizdan 39,6 foizga tushdi. Shuningdek ish bilan band aholining 78,3 foizi mazkur sohada mehnat faoliyatini yuritmoqda.[2].

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g`oyalar va texnologiyalarni qo'llab - quvvatlash yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini majmuaviy tarzda qo'llab quvvatlash tadbirlariga keng e'tibor qaratilgan. Jumladan "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" bo'yicha milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning ilg'or bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, naqdsiz hisob-kitoblar hajmi va qamrovini oshirish, shu jumladan, iqtisodiyot sohalarida to'lovlarning zamonaviy elektron shakllarini joriy etish va tadbirkorlik sub'yektlarini rag'batlantirish, shuningdek, bankdan tashqari aylanishini qisqartirish, bank cassalariga naqd pul tushumlarini rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq ma'muriyatchiligi sifati va samaradorligini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida soliqqa tortishni takomillashtirish, imtiyozlarning individual tartibda berilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ularni maqbullashtirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqish, oilaviy biznes va hunarmandlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'lmini kengaytirish, tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada rag'batlantirish va takomillashtirish, eksport-import operatsiyalarini tartibga solishni takomillashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari raqobatdoshligini oshirish, eksport hajmini ko'paytirish va geografiyasini kengaytirish, raqobatdosh kompaniyalarni yaratish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini yiriklashishini rag'batlantirish va boshqa dolzarb tadbirlar belgilangan. [3]

Jahon banki o'zining navbatidagi «Biznes yuritish-2017: barcha uchun teng imkoniyatlar» deb nomlangan yangi reytingini e'lon qildi. Tahlil natijalariga ko'ra, Bruney-Dorussalom, Keniya, Qozog'iston, Belarus, Indoneziya, Serbiya, Gruziya, Pokiston, BAA va Bahrayn «biznes yuritish» ko'rsatkichlari bo'yicha 2015-2016 yillarda eng yaxshi natijalarga erishgan mamlakatlar 10 taligidan joy olgan.

Ushbu mamlakatlar, umumiy hisobda jami 48 ta tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar o'tkazgan.

Hisobotda ta`kidlanishicha, reytingga kiritilgan 190 davlatning har birida tadbirkorlik qilish uchun shart-sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan kamida bitta islohot olib borilmoqda. Ammo Yevropa va Markaziy Osiyo tadbirkorlik sohasida kamida bitta islohot o'tkazayotgan mamlakatlar soni ko'pligi bilan ajralib turadi.

Reytingda birinchi o'rinni Yangi Zelandiya egallagan. Ikkinchida Singapur, uchinchida Daniya joylashgan. Hong Kong, Koreya respublikasi, Norvegiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Shvetsiya va Makedoniya kuchli o'nlikka munosib ko'rilgan. Sobiq ittifoq davlatlari orasida eng yuqoriko'rsatkich Gruziyaga tegishli bo'lib, u 16-o'rinda. Markaziy Osiyo respublikalari orasida eng yaxshi natijani 35-o'rinda joylashgan Qozog'iston ko'rsatmoqda. Qirg'iziston 75-, Tojikiston 128-o'ringa joylashtirilgan. Turkmaniston reytingga qabul qilinmagan.

Jahon banki reytingini tuzish bo'yicha tadqiqotchilari O'zbekistonda biznes yuritish imkoniyati va qulaylik muhitini respublikani 87-o'ringa munosib ko'rish bilan baholagan.

Yuqoridagi islohatlar natijasida Jahon banki hisobotiga ko'ra, O'zbekiston o'tgan yilda biznes yuritishning qulayligi bo'yicha jahonning 190 mamlakati ichida 63,03 ball bilan 87-o'rindan joy olgan.

O'tgan yilda O'zbekiston bu borada baholash indikatorlarining 10 tasidan 4 tasida o'z pozitsiyasini yaxshilab olgan. Ular quyidagilarda iborat.

Ijobiy siljishlarni xususiy mulkni ro'yxatga olish darajasida (6 pog'onaga siljish), minoritar investorlar huquqini himoya etish darajasi (8 pog'onaga siljish), soliqqa tortish, xalqaro savdo darajasi (1 pog'onaga siljish) kuzatish mumkin. Qolgan indikatorlar bo'yicha keskin pasayishlar kuzatilmagan.

Jahon bankingining «Biznesni yuritish-2017» hisobotida O'zbekiston, biznesni yuritish uchun eng qulay sharoitlarni yaratish bo'yicha top 10 islohotchi mamlakatlar qatoridan o'rin olgan.

Tadbirkorlik sub'ektlarini internet tarmog'i orqali davlat ro'yxatidan o'tkazishning soddalashtirilgan tartibining amaliyatga joriy etilishi va "Yagona darcha" tizimining yanada takomillashtirilishi, iste'molchilarga elektr energiyasini etkazib berish barqarorligining o'sishi va elektr energiyasiga bo'lган tariflarni shakllantirishning ochiq-oshkorligini ta'minlash harakatlarining boshlanganligi, korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruvi usullarining joriy etilishi, aktsiyadorlar huquqlari va rolini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalgalashirishning oshirilayotganligi, tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlari ko'rsatishning ularni vakolatli organlarga jalb etmagan holda ular o'rtasida elektron axborot almashinuviga yo'lga qo'yilayotganligi, tanlov asosida er uchastkalarini ajratishning yangi mexanizmining joriy etilayotganligi, qurilishga ruxsat berish sohasidagi tartib-

taomillarning takomillashtirilayotganligi, aytish mumkinki, qisqa davriylikdagi erishilgan muhim natijalar bo’ldi.

1-jadval

O’zbekistonda biznes yiritishni baholash indikatorlari holati

T/r	Indikatorlar	2016 “DB- 2017”	2015 “DB- 2016”	O’zga rishi	2016 “DB- 2017” %	2015 “DB- 2016” %	O’zga rishi
Σ	Reytingdagi umumiy o’rni	87	82	↓ 5	63.03	62.68	↑ 0.35
1	Korxonani ro’yxatga olish	25	23	↓ 2	93.93	93.91	↑ 0.02
2	Kurilishga ruxsatnomaga berish	147	147	-	59.79	59.58	↑ 0.21
3	Energiya tarmog’iga ularish	83	78	↓ 5	71.81	71.32	↑ 0.49
4	Xususiy mulkka xukuknini ro’yxatga olish	75	81	↑ 6	66.23	65.25	↑ 0.98
5	Kreditlash	44	42	↓ 2	65.00	65.00	-
6	Minoritar investorlar huquqini ximoya etish	70	78	↑ 8	56.67	55.00	↑ 1.67
7	Soliqqa tortish	138	139	↑ 1	59.06	57.96	↑ 1.10
8	Xalqaro savdo	165	166	↑ 1	44.31	44.31	-
9	Shartnomalar bajarilishi	38	37	↓ 1	67.26	67.26	-
10	To’lovga noqobililikni(nochorlik ni)hal etilishi	77	72	↓ 5	46.29	47.24	↓ 0.95

Manba: jadval Doing business 2017: Equal opportunity for all. Economy profile Uzbekistan. Page-6. <http://www.doingbusiness.org> sayti ma’lumotlariga asosan tayyorlangan.

korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv usullarining joriy etilishi, aktsiyadorlar huquqlari va rolini oshirish bo’yicha keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilayotganligi, tadbirkorlik sub’ektlariga davlat xizmatlari ko’rsatishning ularni vakolatli organlarga jalgan holda ular o’rtasida elektron axborot almashinushi yo’lga qo’yilayotganligi, tanlov asosida er uchastkalarini ajratishning yangi mexanizmining joriy etilayotganligi, qurilishga ruxsat berish sohasidagi tartib-taomillarning takomillashtirilayotganligi, aytish mumkinki, qisqa davriylikdagi erishilgan muhim natijalar bo’ldi.

Joriy yilning shu kuniga qadar ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash,

tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun maksimal darajada qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirish maqsadida 3 ta O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, 20 dan ortiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda 25 ta Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

Amaliy natijalarni faqat farmon va qarorlarning chiqarilishida emas, balki iqtisodiyotdagi real siljishlarda ham aniq ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilning o'tgan davrida tadbirkorlik sub'ektlariga, jismoniy shaxslarga chiqarilgan kredit summalarining o'tgan yillarga nisbatan bir necha borobar oshirilganligi, imtiyozli muddatli kreditlarning jami kreditlar tarkibidagi salmog'ining tubdan ortishi, tashqi kapitalni respublikaga olib kirish borasida erishilgan natijalar (Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Turkiya bilan imzolangan real investitsion shartnomalar), tadbirkorlik va ishbilarmonlikni yo'lga qo'yish yuzasidan turli byurokratik to'siqlarning olib tashlanishi bilan bog'liq jihatlar biznes yuritish muhitida ham yangi bir davrni boshlab berdi, deyish mumkin.

«Biznesni yuritish» hisoboti yo'nalishlari bo'yicha qonunchilik talablarini amaliyatga tatbiq etish va amalga oshirilayotgan choralar samaradorligini belgilab olish yuzasidan rejalashtirilgan tadbirdilar tufayli «Biznesni yuritish» hisobotida O'zbekiston reytingini har yili 10 pog'onaga yaxshilab, 2017 yildagi 80-o'rindan 2021 yilda 40-o'ringa olib chiqish Hukumat darajasida ustivor vazifa qilib belgilanganligi ham bu borada ishlarning samaradorligini oshirishning yorqin ifodasıdir. Jumladan, O'zbekistonda «Biznesni yuritish» reytingidagi o'rnini oshirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha doimiy faoliyat olib boruvchi mahkamalararo komissiyani tashkil etilayotganligi va uning muhim vazifalari sifatida quyidagilar belgilanganligini ham alohida qayd etish lozim:

- biznesni yuritish uchun sharoitlarni yaxshilash bo'yicha choralarini tatbiq etish bilan bog'liq masalalarda davlat organlari bilan samarali aloqalarni ta'minlash;
- tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo'yicha tadbirdarni tahlil qilish;
- qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlash;
- biznes uchun sharoitlarni yaxshilash bo'yicha majburiyatlarini bajarmayotgan davlat organlari rahbarlariga javobgarlik choralarini qo'llash bo'yicha takliflarni kiritish.

O'zbekistonda biznesni yuritish bo'yicha mavjud sharoitlarning xalqaro me'yorlarga to'laqonli javob berishiga qaratilgan aniq va manzilli chora-tadbirlarning belgilanishi (bojxona, soliq siyosatida o'zgarishlar, erkin va kichik sanaot hududlarining tashkil etilishi va h.k.) ham bu borada amalga oshirilgan muhim ishlarning amaliy natijasi bo'ldi, deyish mumkin.[4]

Mavzuga oid ma'lumotlar tahlili quyidagi xulosalarni qilish imkonini beradi:

xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, barcha turdagи to'siq va cheklowlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojiga to'liq erkinlik berish;

- shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning xuquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yeqtalarining moliyaviy resurslarga bo'lgan talablarini qondirish maqsadida bank kreditlari hajmlarini yanada

ко’пайтириш, шу сурʼадан xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kredit liniyalari kengaytirish;

2-jadval

“Biznes yuritish” bo’yicha O’zbekistonning 2017-2021 yillarga reja ko’rsatkichlari

t/r	Indikatorlar	2016 “DB- 2017”	2017 “DB- 2018”	2018 “DB- 2019”	2019 “DB- 2020”	2020 “DB- 2021”	2021 “DB- 2022”
Σ	Reytingdagi umumiy o’rnni	87	80	70	60	50	40
1	Korxonani ro’yxatga olish	25	23	18	13	10	10
2	Kurilishga ruxsatnoma berish	147	127	100	80	50	45
3	Energiya tarmog’iga ularish	83	63	53	43	33	30
4	Xususiy mulkka xukuknini ro’yxatga olish	75	55	45	35	25	20
5	Kreditlash	44	38	28	25	20	20
6	Minoritar investorlar huquqini ximoya etish	70	60	55	45	35	35
7	Soliqqa tortish	138	118	98	78	50	35
8	Xalqaro savdo	165	135	100	80	50	40
9	Shartnomalar bajarilishi	38	33	28	25	20	20
10	To’lovga noqobililikni(nochorlikni)hal etilishi	77	67	57	50	45	40
11	Davlat xaridi	-	-	-	-	50	50
12	Mehnat bozorini tartibga solish	-				50	50

Manba: jadval Doing business 2017: Equal opportunity for all. Economy profile Uzbekistan. Page-6. <http://www.doingbusiness.org> sayti ma’lumotlariga asosan tayyorlangan.

- ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va kengaytirish hamda ularning ishlab chiqarish faoliyatini uchun xom ashyo va materiallarni sotib olishda ularning narxlaridagi tafovutlarni cheklash;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining xususiyatlari kreditlash mexanizmida inobatga olinishi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini moliyaviy qo’llab-quvvatlash orqali aholi bandligini oshirish, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini biznes loyihalarni kreditlash hajmini kengaytirish;

- tadbirkorlik sub'yektlariga bank xizmatlarini ko'rsatish borasida eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, jumladan bank plastik kartalaridan foydalanishda cheklovlarni bekor qilish;

- kredit olgan xususiy tadbirokrlik sub'yektlarini soliqlar orqali rag'batlantirish kelgusida mazkur tarmoqni yanada rivojlanishida omil bulib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. B.Shermuxamedov “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini moliyaviy qo`llab-quvatlash masalalari” Moliya ilmiy jo`rnali 5-son 2017 yil 130-bet

2. O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari.

www.stat.uz

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.

www.aza.uz

4. M.Rahimov “O'zbekistonda biznes yuritishnng qulayligi dunyo retinglarida” moliyachi gazetasi 2017-yil avgust 9(162)-son 5-bet

5. Doing business 2017: Equal opportunity for all. Economy profile Uzbekistan. Page-6. <http://www.doingbusiness.org>